



**NORMUROD NORQOBILOV HIKOYASIDA BOSH
QAHRAMON VA IJTIMOY MUHIT MASALASI**

Ahmedova Sarvinov Alimardon qizi

Qoraqalpoq davlat universiteti

2-bosqich talabasi

<https://www.doi.org/10.37547/ejsspc-v03-i02-p2-46>

ARTICLE INFO

Received: 09th February 2023

Accepted: 19th February 2023

Online: 20th February 2023

KEY WORDS

Ijtimoiy muhit, bosh qahramon, syujet, tugun, ruhiyat, ruhiy kechinma.

ABSTRACT

Mazkur maqolada bosh qahramon va ijtimoiy muhit masalasini N.Norqobilov hikoyasi misolida tadqiq qilinib, ijodkor mahoratini belgilovchi badiiy-estetik qarashlar haqida firk yuritiladi. Shuningdek, asarning kompazitsion tuzilishiga e'tibor qaratiladi.

Milliy mustaqillikka erishish davri yutuqlarimiz bilan birga o'zbek adabiyoti, xususan, o'zbek nasrida sezilarli natijalar ko'zga tashlandi.

Birinci prezidentimiz Islom Karimov ta'kidlaganlaridek, "Adabiyot so'z san'ati azaldan xalq qalbining ifodachisi haqiqat va adolat Jarchisi bo'lib keladi. Xususan, Mustaqillik yillarida yurtimizda ma'naviyamizning g'oyat muhim va uzviy qismi bo'lgan adabiyotni rivojlantirish, shoir va yozuvchilarimizning ezgu mehnatini qadrlash va munosib rag'batlantirish.... borasida ko'plab savobli ishlar amalga oshirildi" [1].

Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek, yozuvchilar asarlarini tahlil va talqin qilish adabiyotshunosligimizda yangi-yangi imkoniyatlar eshigini ochmoqda. Erkin A'zamov, Xurshid Do'stmuhammad, Nazar Eshonqul va N.Norqobilov kabi adiblarimizning ijodi bunga misol bo'la oladi. Haqiqatan yuqorida nomlari zikr etilgan ijodkorlar orasidan Normurod Norqobilovlarning asarlarini bugungi adabiyotshunoslikning asosiy masalalaridan.

Bugungi o'zbek poeziyasida iste'dodli va taniqli adib Normurod Norqobilov o'z uslubiga, tiliga ega ekanligini hozirgi kunda uning kitobxonlari, muxlislari tan olishadi, asarlarini sevib o'qishadi. Normurod Norqobilov uslubining o'ziga xosligi, qahramonlarining hayotiyliigi uning asarlarini asosiy omillaridan biridir.

Inson ruhiyati tasvirlanar ekan, uni shakllantiruvchi, yuzaga chiqaruvchi asosiy vosita jamiyat, ijtimoiy muhit ekanligi ma'lum. O'smir shaxsi ijtimoiy munosabatlar mahsulidir, buning sababi, u doimo inson davrasida, ular bilan o'zaro ta'sir doirasida bo'ladi. Shunday ekan, uning hissiy va aqliy rivojlanishida ijtimoiy muhit katta o'rin tutadi.

Uning asarlariga nazar tashlar ekanmiz, " Erkak" hikoyasi e'tiborimizni tordi. Hikoyada bir yosh go'dakning ijtimoiy muhit ta'sirida hali bolalik nimaligini anglamay turib, erta kattalardek fikrlashga va dunyo qarashini o'zgarishiga olib keldi.

Asar sujet tarkibiga kiruvchi tugun bilan boshlanadi.



"Tugun asar voqealarining boshlanishiga turtki bo'lgan voqea, asar konflikti qo'yilgan joydir. Ekspozitsiyadan farqli o'laroq, tugun sujetning zaruriy elementi sanaladi, ya'ni u sujetda har vaqt hozirdir.

Faqat ayrim hollarda, xususan, ba'zi xronikali sujetlarda, shuningdek, "ichki harakat" dinamikasi asosidagi sujetlarda u yetarlicha bo'rtib ko'rinmasligi mumkin. Tugun, odatda, asarning boshlanishida, ekspozitsiyadan keyinoq beriladi. Ba'zan, muayyan badiiy-estetik maqsadni ko'zda tutgan holda, uning o'rni o'zgartirilishi ham mumkin". [2.112].

Asarni o'qiyotgan kitobxonda hikoyaning sarlavhasini " nega aynan "erkak" deb olgan ekan?" degan savol bo'lishi mumkin.

Erkak ... ? Chin insoniy erkak deb biz hayotning achchiq va shirin kunlarida doim hamroh bo'la oladigan, qiyinchilikka bardosh berib sabr lia yaxshaydigan, kuchli insonlarga nisbatan qo'llamaymizmi?!

Shu yerda yozuvchi mahorati yaqqol namoyon bo'ladi. Buni yosh bo'la turib, shunday insoniy fazilatlarini o'zida mujassam qila olgan Doniyorboy hayotidagi bir voqea orqali ochib beriladi.

Hikoyada tasvirlanishicha, bosh qahramonimiz Doniyorboy hali voyaga yetib ulgurmasdan otadan erta yetim qolgan va buning ustiga qarindoshlari ham yaxshi muomalada bo'lmasdi. Qahramonimiz ammasi tomonida aytilgan ushbu satrlar buning yaqqol aksidir.

"Uf-f, bu sag'irlarniyam tashvishi toza jonga tegdi-da, lekin!.."

Ko'mak berar degan ilijda ketayotgan Doniyorboy bu gaplarni eshitib juda ranjiydi.

Hikoya shu jumla bilan boshlanar ekan nega ammasi tomonidan bunday gap aytilganligiga keyinroq yozuvchi oydinlik kiritadi.

Hikoyadagi voqealar bir qop bug'doyni tegirmonga olib borib un qilish bilan bog'liq.

Katta bir hovlida Doniyor, onasi va singillari bilan turarkan, necha kundirki onasi dala ishlari bilan bolib, bug'doyni tegirmonga olib borishga qo'li tegmaydi. Kuni kecha ham un yoqligi uchun qo'shnilaridan un so'rab turgandi. Doniyorga aytay desa u hali kichkina unni ko'tara olmaydi. Shunig uchun ammasining o'gilariga aytishga to'g'ri keldi. Ammasining uyiga kirar-kirmas "U-uf, yana qanday tashvishni boshlab keldi-ya bu bola?!" - degan gap qulog'iga chalindi, yurak - bag'ri tilkalandi. Doniyor iloji boricha ammasining uyiga bormaslikka urinadi. O'ziga qolsa-ku, bugun ham qadam bosmasdi-yu, lekin tegirmon degan balo uning bolalarcha g'ururidan ustun kelgandi.

Shuni ham aytish kerak-ki, Doniyorning ammasini bir emas uchta og'li bor edi. Biroq ularning hech biri bunga yaramadi...!

"- Bugun mening umuman vaqtim yo'q! - dedi bunga javoban Nortoji tanbal keskin ohangda. - Agar vaqti bo'lsa, ana, Qulmaningiz borsin.

- Bugun men rayon enishim kerak, - dedi Qulman degani, og'zidagi luqmasini chala-chulpa yutib, piyoladagi choyni xo'rillatib icharkan. - Ha, aytgancha, hademay Salim kep qoladi-yu..." deya ish qilishdan qochib bir biriga ag'darishadi" [3].

Ko'ngli o'ksib qolgan Doniyor bu orada ammasi uztgan shirinlikka qiyo boqmay ketish payiga tushadi. Ammasining uyidan uzoqlashar ekan, horg'in va biroz nafaratga to'la hayolar uni hech tark etmadi.



"U oqshom onasining sassiz ezilishini o'ylab, qattiq bezovtalanmoqda edi. Qani endi, tog'asining ovuli yaqin bo'lsa-yu, yugurib borsa yoxud o'z tengi bolalarga sira mumkin bo'lmagan bu ishga dadil qo'l urib, qopni tegirmonga o'zi olib borib, unni o'zi tortib kelsa". [3].

Ha ... to'g'ri qahramonimiz Doniyorboyga ham oson emas. Otasiz katta bo'lish shunday vaziyatlarda bilinadi. Hozirgi vaziyatda qanidi otasi tirik bo'lganda-yu, ammasining ishyoqmas dangasa o'g'illarga ishi tushmasa... Lekin afsuski, unday emas bu taqdir. Taqdirni o'zgartirish esa faqat ollohga xos. Aynan mana shu taqdir bosh qahramonimiz Doniyorboyga hayotda erta ulg'ayish uchun asos bo'ldi. Shuningdek, tog'asi ham endi u uyning yagona erkak ekanligi haqida ham ko'p gapirgan.

"Tog'asi aytmişli, oilaning bosh erkagi bo'la turib, onasini g'am ummoniga cho'ndirmoq yoxud alam o'tida qovurmoq juda uyat-da, axir! Biroq oilaning bosh erkagi bo'lish oson emas, g'oyatda mushkul ekan..! Shunda u qo'shni qishloq etagidagi tegirmonni ko'z oldiga keltirib, birdan sergak tortdi. Shoshma, axir otasiga ergashib, bir emas, ikki bor tegirmonga borgandi-ku. Manovi dardisar qopni bir amallab tegirmonga yetkazsa, qolgan ishni tegirmonchi cholning o'zi eplab-seplab bermasmikan?" degan hayolda tegirmonga unni o'zi olib borishga qaror qildi. Shunda ham Doniyorning bolalarcha fikrlashi aslo yark etmadi

"To'g'ri, dastlab, nima, uyingda sendan kattarog'i yo'qmidi, deya koyib berishi tayin. O'tgan safar hali o'smir yoshiga yetmagan bir bolani shunday deya yanganiga o'zi guvoh bo'lgan. Agar u koyinar bo'lsa, uyda erkaklardan eng kattasi o'zimman, deya rostini aytadi-qo'yadi " [3].

Qahramonimiz tilidan aytilgan "uyda erkaklardan eng kattasi o'zimman" deyilishi uning qaysidir ma'noda uning mas'uliyatli bo'lishiga undardi..

Shunday qilib, qahramonimiz kattalardek qaror qabul qilib, shu kun onasini juda hursand qildi. Onasi dala ishlarini tugatib uyga qaytayosa o'g'lining qilgan ishini ko'rib, O'g'lga tiklab-tiklab qaradi va birdan sergak tortdi, qoshida o'zi bilgan jimitdek o'g'li emas, haqiqiy bir erkak, jiddiy boqib turardi.

Bundan onaning ko'zlari yoshlandi, biroq bu beixtiyor qalqigan sevinch va g'urur yoshlari edi.

Xudoyberdi To'xtaboyev "Mungli ko'zlar" romanida ham ijtimoiy muhit bolalar ruhiyatiga katta ta'sir etadi." To'kin-sochin oila farzandi ekanligi asar boshida bolaning boshqacha ruhiyatini ifodalasa, asardagi fojealar davomida bolalar ruhiyatida o'zgarishlar dinamikasini yuzaga keltirdi. Ushbu dinamika turli ijtimoiy muhitda turli ruhiy kechinmalarining yuzaga kelishi bilan izohlanadi" [4]

Bola ruhiyatini ochishda ijtimoiy muhit katta ahamiyatga ega. Ijtimoiy muhitda bola ruhiyati shakllanadi, rivojlanadi. Ijtimoiy muhit, jamiyat ahvoli shaxsning ham ahvolini belgilab berish jarajasida katta kuchga ega.

References:

1. I.A.Karimov «Yuksak ma'anaviyat - yengilmas kuch».
2. Dilmurod Qur'onov. Adabiyotshunoslikka kirish. 112 bet.
3. «Yoshlik» jurnali, 2017 yil, 3-son
4. Ruxsora To'liboyeva. O'zMU tadqiqotchisi. "Yoshlik", 2011 yil, 6-son.